



EPIK ASARLARNI O'RGATISHDA TA'LIMYI INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH

Mahmado'stov Abdulla

“O'zbek tilining sohada qo'llanishi” fani o'qituvchisi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali
abdullamahmadustov@gmail.com
Tel:+998945774244

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-August 2023 yil

Ma'qullandi: 10-August 2023 yil

Nashr qilindi: 14-August 2023 yil

KEY WORDS

Epik asar, talimiy integratsiya, fanlararo aloqa, tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil.

ABSTRACT

Ushbu maqolada epik asarlarni o'rgatishda ta'limiy integratsiyadan foydalanish usullari G'ofur G'ulomning “Shum bola” qissasi va Turob To'laning “Yetti zog'ora qissasi” dan o'rin olingab “Do'nan” hikoyasi orqali ko'rsatib berilgan.

Ta'limni tabaqalashtirish rad etilmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarni mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an'anaviy o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi.

Ta'limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta'limga bog'liq integratsiya tushunchasi ikki ma'noga ega:

1. O'quvchida atrofidagi olam to'g'risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya – ta'lim maqsadi sifatida ko'riladi).

2. Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda, integratsiya – ta'lim vositasi bo'ladi). Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, o'quvchi barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlaridan o'rgatilishi kerak.

Epik asarlarni o'rganishda ta'limiy integratsiyani amalga oshirish texnologiyasi sifatida “Shum bola” qissasiga e'tibor qaratish mumkin. Asarning bosh qahramoni mashaqqatli urush kunlarida otasidan ayrilgan. Onasi bir etak yetimni boqish uchun kun bo'yi tinim nimaligini bilmay mehnat qiladi. Shum bola bo'lsa, tengdoshlariga qo'shib erta tongdan to qorong'i kechgacha ko'chadan uyga kirmaydi. U – yerga ursa ko'kka sakraydigan, bir joyda uzoqroq turib qolsa yuragi siqilib ketadigan, tinib-tinchimas bolalar sirasidan. Kunlarning birida u onasini xafa qilib qo'yganidan xijolat bo'lib, qolaversa, biror oy mehnat qilib pul topib kelish ilinjida yo'lga tushadi. Uning Toshkent atrofidagi qishloqlarda kechadigan sarguzashtlari olti oydan ortiq davom etadi. Mana shu vaqt mobaynida Shum bola bir-biridan qiziq voqealar ishtirokchisiga aylanadi.

Pochchasi avaylab boqayotgan qimmatbaho qushlarga qatiq, suzma ichirib harom o'ldirib qo'yadi, do'sti Omonga qo'shib Sulon o'g'ri boshchiligidagi kissavurlar bilan tunni o'tkazadi, ko'chmanchilar ovulida o'lik yuvib sharmanda bo'lishadi, masjid imomining

og'ilxonasida kasal ho'kiz o'rniga soppa-sog' eshakni so'yib qo'yib, rosa kaltak yeydi v. h. Shum bola qayerga bormasin, kim bilan to'qnashmasin, hamma joyda kattalarning unga bepisand qarashi, qo'pol muomalasi unga yoqmaydi. O'zlarini go'yo yetimning boshini silaydigan himmatli kishilar qilib ko'rsatadigan turli toifadagi noinsof kimsalar uning navqiron kuchidan tekin foydalanishga urinadilar. Bu yosh bolani turli qing'ir yo'llarga boshlovchilar ham topiladi.

Yuzlab qalandarlarga yo'lboshchi bo'lib olib, har gapida qayta-qayta Xudoni tilga oladigan ikkiyuzlamachi Eshon Shum bolani to'g'ridan to'g'ri o'g'irlikka boshlaydi. Eshonning Shum bolaga aytgan gaplari uning naqadar tuban kimsa ekanidan dalolatdir. Shaharning bir chekkasidagi xaroba uyni nashavand-bangilar yig'iladigan takyaxonaga aylantirgan Hoji bobo ham o'zicha xudojo'ylikda haligi Eshondan qolishmaydi. Biroq uning qilayotgan ishlari Xudoning aytganlariga mutlaqo teskariligi bilan o'quvchini hayratlantiradi.

G'afur G'ulom mana shu nursiz, qabohat va jaholatga to'la muhitni yosh bola nigohi orqali rang-barang mazmunga to'la holda ifodalaydi. Qissani o'qilar ekan, undagi hodisalarning qiziqligi, qahramonlar xarakteridagi yorqin jihatlar o'quvchini butunlay o'ziga rom etadi.

Garchi, bosh qahramon duch keladigan odamlarning ko'pchiligi ochko'z, xasis, nazari past kimsalar bo'lsa-da, Shum bola bunday kimsalarni bir ko'rishda taniydi. Ularning chirkin muhitidan iloji boricha tezroq qutulish yo'llarini qidiradi. Mana shu paytlarda Shum bolaning naqadar topqir, ziyrak, ba'zan esa, yaxshi ma'noda shum bola ekaniga amin bo'lnadi.

Qissada Shum bola Sariboyday ezma, injiq, xasis kimsani boplab dodini beradi. Uning Sariboyni mot qilish usuli Sharq xalqlari og'zaki ijodi namunalarini – ertaklarni ijodiy qayta ishlash mahsuli hisoblanadi. Bunda badiiy asarni o'qitishda folklor bilan yozma adabiyotni integratsiyalab, o'rganish maqsadga muvofiq. Unga ko'ra, biron muhim voqeani aytish uchun uni bu voqeaga mutlaqo aloqasi yo'q tafsilotlar orqali bayon qilish usuli ertaklarda uchraydi. Og'zaki adabiyotining katta bilimdoni hisoblangan G'afur G'ulom o'z Shum bolasini bu safar ayni shu usul bilan Sariboyning g'azabidan omon olib chiqib ketgani uning topqirligidan dalolat.

Asardagidek, ezma boyga odam bolasi teng kela olgan emasdi. Unga umrbod xizmat qilib charchagan kishilarning dard-u alami ichida. Hech biri yurak yutib xo'jayinga gap qaytara olmaydi. Gap qaytarish qayda, umuman, bu odamga ro'para kelishdan qo'rqib yurishadi. Bu muammoni yechib kelish Shum bolaning chekiga tushadi.

Birovlarning dard-u tashvishi, olamda bo'layotgan ming turli ishlar Sariboyning yetti uxlab tushiga kirmasdi. U dunyoda faqat o'zim bo'lay deb yashaydiganlar xilidan. Shu ahvolda Shum bola xo'jayinning "innankeyin"iga munosib javob topishi, eng muhimi esa, boyni bu savolni berishdan bezdirib tashlashi kerak! U Sariboyni uncha-muncha gap bilan, yangilik bilan lol qilib bo'lmasligini yaxshi biladi. Uning nozik joyi esa mol-mulki, boyligida edi.

Shum bola pichoqning sinishi bilan boshlangan gap Bo'riboyvachchaning terakdan yiqilib o'lishi bilan tugaydi. Bu ham yetmaganday, boyning turmushga chiqmagan o'rtancha qizi "dunyoga arziydigan o'g'ilcha tuqqani", chaqaloq esa Badal aravakashga o'xshashi to'g'risidagi gaplar Sariboyni yiqitadi. Nafaqat bu voqeada, balki butun qissa davomida biz Shum bolaning topqirligi, hozirjavobligi, har qanday qiyin vaziyatdan sog' chiqib keta olishiga qayta-qayta amin bo'lamiz. Ushbu qissa orqali folklor bilan badiiy asarning aloqadorligi va integrativ holatlari kuzatildi. 5-sinfda o'rganilgan G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam"

hikoyasi bilan “Shum bola” qissasini ham mohiyat jihatdan aloqadorligini kuzatish mumkin.

Turob To‘laning “Yetti zog‘ora qissasi” asarida o‘zbek tilining qanchalar boy va shiraliligi, u orqali chizilgan tabiat va inson manzaralarining naqadar tiniqligi ayon bo‘ladi. Adibning badiiy mahoratini darslikda keltirilgan mo‘jaz hikoya yaqqol ko‘rsatadi. Toshtemirning buvasi o‘z bolaligidan xotira bo‘lib qolgan hodisani aytib berish asnosida bir emas, bir necha insonning takrorlanmas xarakteri namoyon bo‘ladi. “Do‘nan” asarida yozuvchi qahramonining yoshi, tajribasi, o‘ziga xos gapirish uslubiga mos so‘zlar, iboralar tanlaydi, gaplarni og‘zaki nutqqa mos tarzda tuzadi.

Afsuski, ba‘zan insonlar umrbod do‘stim deb yurgani odamlardan ko‘ra tilsiz-zabonsiz hayvonlardan ezgulik ko‘radi. Baxshilla va Do‘nan o‘rtasida yillar davomida toblangan do‘stlik va mehr-u muhabbatni tushunish, his qilish ham boshqalarga oson kechmaydi. Muallifning asl niyati – turli sabablar orqali yuzaga kelgan murakkab vaziyatga tushib qolgan odamlar va hayvonlarning nozik kechinmalarini yuqtirishdir. “Do‘nan” hikoyasi o‘quvchilarning dunyoqarashi, didi, insoniy tuyg‘ulari boyishiga kuchli ta‘sir qilishi bilan qadrlil hisoblanadi. Bu asar orqali integrativ ta‘limdagi reallik va badiiylik aloqasi kuzatiladi. Bu aloqadorlik qiyosiy-tipologik tahlil usuli bilan ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Barkamol fayz media. 2018.
2. Мусаев У. Интеграция даражалари // Халқ таълими.- 2002. - № 6.-Б. 5-6
3. Kompetensiya yo‘naltirilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016.

INNOVATIVE
ACADEMY